

## **O‘QUVCHILARNING FRAZEOLOGIK KOMPETENSIYASINING TARKIBIY TUZILISHI VA O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**

**Xasanova Aziza Nurullayevna,**  
Xorazm viloyati Urganch shahri.  
Urganch davlat universiteti  
“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida o‘qituvchisi,  
mustaqil tadqiqotchi.  
[aziza.xasannur120793@gmail.com](mailto:aziza.xasannur120793@gmail.com)  
+99899 2795858

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘quvchilarda frazeologik kompetensiyalarni shakllantirishning tarkibiy tuzilishi va o‘qitishda qo‘llanadigan zamonaviy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar.** Frazeologiya, frazeologik birlik, frazeologik kompetentsiya, lug‘at.*

***Abstract.** This article reflects on the structural of students’ formation of phraseological competences and modern approaches used in the teaching.*

***Keywords:** phraseology, phraseological unit, phraseological competence, vocabulary.*

### **KIRISH**

Mustaqilligimizning keyingi yillarida O‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor va hurmat yanada oshib bormoqda. Bunga davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-sonli Farmoni asos bo‘ldi desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Farmonda davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha dasturlar va “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishi, davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini o‘rnatish kabi juda muhim va dolzarb topshiriqlar berilgan edi. Vazifalarning bajarilishi va amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar O‘zbek tili va uni o‘qitish tizimiga ijobiy ta‘sirini ko‘rsatdi, albatta.

O‘zbek tilini o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bu – mustaqil fikrga ega, ijtimoiy-siyosiy hayotga ongli va faol tarzda aralasha oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Bunda kelajak avlodning kamol topishi, mamlakat hayotida demokratiya asoslarini keng joriy etish, rivojlangan davlat qurish jarayonini tezlashtirish muhim ahamiyatga ega. Har bir sohada o‘qitish, o‘rganish, ta‘lim-tarbiya berishni yo‘lga qo‘yish va isloh qilish talab qilinmoqda. Buning uchun esa, ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan, innovatsiyalardan foydalanish hamda ularni keng miqyosda tatbiq etish ehtiyoji tug‘ilmoqda.

Tilni milliy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida qarash mumkin. Tilning tuzilishi bir necha darajalardan iborat. Shuning uchun, til murakkab tarkibli tizim. Undagi har bir tushuncha yoki ifodalarni o‘quvchilarga o‘rgatish o‘ziga xos yo‘nalish talab qiladi. Ma’lum bir xalq tajribasining xususiyatlari, uning moddiy va ma’naviy madaniyatining xususiyatlari tilning frazeologik kompetensiyada aniq namoyon bo‘ladi.

### **METODOLOGIYA**

Yuqorida keltirilganidek tilning frazeologik darajasi milliy madaniyatning eng muhim tarkibiy qismidir. Ona tili darslarida frazeologiya o‘quvchilarga o‘zlashtirishdan tashqari imkoniyat yaratadi ya’ni o‘z xalqining tili va shakli, madaniyati, o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va qadrlashni o‘rgatadi. Ona xalqining madaniyatini bilish, tilni o‘zlashtirishga yordam beradi. Ma’lum bir etnik guruh uchun nominatsiya darajasida o‘zlashtirilgan tushunchalar, har qanday frazeologik fond asos bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi navbatda, ma’lum bir til uchun mos keladiganini ko‘rsatadigan lingvistik birliklar-frazeologizmlarni shakllantiradi. Fikrimizcha, tilni tushunish va o‘zlashtirish o‘rganilayotgan til frazeologiyasini tahlil qilish, eng muhimlarini ajratib ko‘rsatish frazeologik kompetensiyasining asosi hisoblanadi. Shuning uchun o‘quvchilarda frazeologik kompetensiyani rivojlantirish yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jarayonni til o‘qitish amaliyotida amalga oshirilayotgan eng asosiy vazifalardan biri deb hisoblash joiz. Ushbu tushunchalarni tushunish juda qimmatlidir. Bu yondashuv bilan til muhim tarkibiy qism sifatida ishlaydi va dunyoga milliy qarashni ifodalash shakli bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarda frazeologik kompetensiyasini shakllantirish jarayonni ko‘rib chiqar ekanmiz, tilni o‘qitish amaliyotida amalga oshiriladigan asosiy vazifalardan biri sifatida frazeologik kompetensiyaning mazmun mohiyatini o‘rgatishdan iborat deb hisoblaymiz. Xo‘sh, frazeologik kompetensiya nima?

Frazeologik kompetensiya - bu frazeologik tarkibni bilish va undan muloqot jarayonida foydalanish qobiliyati. Tilshunoslikka bu tushunchani birinchi marta E.A.Dobridneva kiritgan va hozirda ilmiy va uslubiy ishlarda faol foydalanilmoqda garchi u uslubiy atamalar lug‘atida qayd etilmagan bo‘lsa-da.<sup>1</sup>

O‘quvchilarning ona tilida o‘z fikr va kommunikativ niyatlarini to‘g‘ri va obrazli ifodalay olishi, xususan, barcha lingvistik vositalar boyligini, shu jumladan frazeologik birliklarni qo‘llay olishi eng muhim xususiyatlardan biridir.

<sup>1</sup> Добрыднева Е. А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Волгоград, 2000. 42 с

Frazeologik birliklarni bilmasdan o‘quvchi ona tilida suhbatdoshlari bilan muloqotda erkin va teng huquqli shaxsga aylanmaydi, chunki u ular bilan turli qarashlarda erkin ishlay olmaydi. Bunday vaziyatlarning oldini olish uchun o‘quvchilarda frazeologik kompetentsiyani, xususan, quyidagi bilimlarni shakllantirish lozim:

- 1) frazeologik lug‘at va frazeologik birliklarni anglash qobiliyati;
  - 2) frazeologizmlardan foydalanishda grammatik qoidalarga rioya qilish;
  - 3) nutqda frazeologik qoliplarga tayanish;
  - 4) turli sohalarida frazeologik birliklardan foydalanishda funksionallikni joriy etish;
  - 5) axborotni har jihatdan idrok etishga erishish uchun FBlarni qo‘llash;
- Shuningdek, o‘quvchi qobiliyatida:
- a) frazeologik birliklarni o‘z ichiga olgan xabarga aniq javob berish;
  - b) suhbat davomida vaziyatga to‘g‘ri baho berish,
  - c) o‘quvchi va suhbatdoshning umumiy va lingvistik bilim darajasini hisobga olish.

Frazeologik kompetentsiya mazmunini ushbu bilim va ko‘nikmalar asosida yoritish mumkin. Ushbu kompetensiyaning rivojlanish darajasini belgilashda nazorat obyektlari sifatida E. G. Azimov va A. N. Shchukinga ergashib, ma‘lum bir kompetensiyaning mazmunini tashkil etuvchi bilim, nutq qobiliyatlarini tushunish mumkin.<sup>2</sup>

O‘quvchilar nutqida frazeologik kompetentsiyani shakllantirishda bir qancha muammoli vaziyatlar mavjud.

- 1) ona tili darslik va o‘quv qo‘llanmalarida frazeologik materiallarning yetarli darajada ifodalanmaganligi;
- 2) o‘quv dasturlariga kiritilgan frazeologik birliklar metodikasi aniqlashtirilmaganligi;
- 3) frazeologizmlarning lingvistik va uslubiy asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- 4) nutqda frazeologik birliklarni idrok etish, tushunish va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar tizimining ishlab chiqilmaganligi (o‘quvchi va o‘qituvchi mashq daftarlari negizida);
- 5) o‘quvchilarni qiziqtirgan mavzu bo‘yicha tarqoq ma‘lumotlarni umumlashtirish va tushunish zarurati

<sup>2</sup> 8. *Азимов Э. Г., Щукин А. Н.* Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: ИКАР, 2009. 173 с.

6) lingvodidaktika, madaniyatshunoslik sohasidagi so‘nggi yutuqlarni frazeologizmlar bilan bog‘lash.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Umuman olganda, so‘zda bo‘lgani singari, *frazeologik birikmalarda* ham mantiqiy-nominativ ma‘no bilan birga ekspressiv-stilistik bo‘yoqdorlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning frazeologiyani o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoji va FBlarni tushunish, ulardan samarali foydalanishga o‘rgatish usullarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi frazeologik kompetensiyalarining buzilishiga olib keladi. Bunday vaziyat bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Ulardan biri ona tilini o‘qitishda ishlatiladigan frazeologik materiallarni kamayishi bilan bog‘liq.

Frazeologiya lingvistik nominatsiya vositalaridan biridir. O‘quvchilarda ona tilini o‘zlashtirishning turli bosqich va darajalarida lingvodidaktik jarayonga kiritilishi kerak bo‘lgan frazeologik birliklar doirasini aniqlash va tegishli til materialini lingvistik nuqtai nazardan tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Frazeologik kompetensiyani shakllantirish murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan, uni optimallashtirish zarur. Bunda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

- 1) frazeologiyani o‘rganish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak;
- 2) o‘quvchilar leksik va grammatik materialni parallel o‘zlashtirishlari kerak;
- 3) frazeologiyani o‘quvchilarda ona tilini o‘qitishning birinchi yilidan boshlab, umumta‘lim jarayonining oxirigacha davom ettirish kerak.

Frazeologik birliklarni tanlashning lingvistik va uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarur, chunki o‘quvchilarga ayni damda qo‘yilayotgandigan DTS talablarida bu bo‘yicha aniq tavsifa yoki talablar yo‘q.

Hozirgi kunda ona tili, xususan, O‘zbek tili fani o‘qituvchisida o‘zining pedodogik va ijtimoiy tajribasi, til madaniyati, pedogogik xulq-atvoriga e‘tibor qaratgan holda mustaqil ravishda frazeologik birliklarni tanlay olish qobiliyati shakllangan bo‘lishi shart. Frazeologik birliklarni tasodifiy tanlash o‘quvchilarning tilni bilish darajasiga va eng asosiysi tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Frazeologiya lingvistik nominatsiya vositalaridan biridir. O‘quvchilarda ona tilini o‘zlashtirishning turli bosqich va darajalarida lingvodidaktik jarayonga kiritilishi kerak bo‘lgan frazeologik birliklar doirasini aniqlash va tegishli til materialini lingvistik nuqtai nazardan tavsiflash maqsadga muvofiqdir. Frazeologik kompetensiyani shakllantirish murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan, uni optimallashtirish zarur. Bunda quyidagilarga ahamiyat qaratish lozim:

- 4) frazeologiyani o'rganish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak;
- 5) o'quvchilar leksik va grammatik materialni parallel o'zlashtirishlari kerak;
- 6) frazeologiyani o'quvchilarda ona tilini o'qitishning birinchi yilidan boshlab, umumta'lim jarayonining oxirigacha davom ettirish kerak.

Frazeologik birliklarni tanlashning lingvistik va uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarur, chunki o'quvchilarga ayni damda qo'yilayotgandigan DTS talablarida bu bo'yicha aniq tavsiya yoki talablar yo'q.

Hozirgi kunda ona tili, xususan, O'zbek tili fani o'qituvchisida o'zining pedodogik va ijtimoiy tajribasi, til madaniyati, pedogogik xulq-atvoriga e'tibor qaratgan holda mustaqil ravishda frazeologik birliklarni tanlay olish qobiliyati shakllangan bo'lishi shart. Frazeologik birliklarni tasodifiy tanlash o'quvchilarning tilni bilish darajasiga va eng asosiysi tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Frazeologik birliklarni tanlash tamoyillarini shakllantirishda asosiy mezon sifatida frazeologik birliklarning kommunikativ qiymati va foydalanish darajasini hisobga olish zarur.

Ona tili fanini o'qitishning zamonaviy usullari o'quvchilarning u yoki bu darajaga erishishiga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun, o'quvchilarga o'rgatilayotgan har qanday til materialini lingvodidaktik mazmunda o'z o'rnini topishi lozim. Ko'rinib turibdiki, frazeologik materialning o'quv jarayonida tarqalishi o'quv bosqichlari bo'yicha bosqichma-bosqich frazeologik me'yorlarni qurishga xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarni o'rganish, birinchi navbatda, asoslanishi kerak:

- 1) frazeologik birliklarning ma'nosini tushunish;
- 2) frazeologizmlarni kontekstda aniq joyini belgilash;
- 3) frazeologik birliklarning formal harakatlarini kommunikativ vaziyatlarga moslashtirish lozim.

Frazeologik birliklarni o'z ichiga olgan nutqni talqin qilishda frazeologik va ensiklopedik bilimlarni uyg'unlashtirish kerak bo'ladi. Masalan: Troya oti- "xosiyatsiz sovg'a-salom" frazeologik birligining ma'nosini bilmaslik - kommunikant yunon afsonasi haqidagi ensiklopedik bilimni yangilashi mumkin. Yunon rivoyatlariga ko'ra Troya urushi davrida, yunonlar askarlari yog'ochdan ishlagan ulkan ot; uning ichiga yunonlarning eng kuchli askarlari yashirinib, Troyaga kirib oladilar. Buning natijasida ular jangda g'alaba qozonadilar.

Bunday uyg‘unlik o‘quvchilarning frazeologik kompetensiyasini rivojlanishiga poydevor bo‘la oladi. Frazeologik birliklarni o‘rganishda ularning haqiqiy ma‘nosini va tasvirini aks ettiruvchi materiallardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘quvchilarga yengillik yaratish maqsadida dasrlik majmualari va uslubiy qo‘llanmalariga frazeologizmlarning mazmun mohiyatini yaqqol aks ettiruvchi mashqlar kiritish va buni integratsiyalash lozim. Mashqlar majmuasini ishlab chiqish nutqda frazeologik birliklarni idrok etish, tushunish va ulardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

### **XULOSA**

Frazeologik kompetensiyani shakllantirish o‘quvchilardan ona tilining kontekstida ishlaydigan ijtimoiy-madaniy ma‘lumotga ega bo‘lishlarini talab qiladi. U bilan samarali ishlash sharti esa frazeologizmlarni lingvistik va lingvomadaniy izohlarga asoslangan holda o‘quvchilar ongiga singdirishdir.

Barcha tillardagi frazeologizmlar xalqning majoziy tafakkurining tabiati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tarixni aks ettiradi, madaniyat, jamiyat an‘analarini barhayotligini ta‘minlaydi.

### **References:**

1. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni,
2. 2019-yil 26- noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror
3. Добрыднева Е. А. Коммуникативно-прагматическая парадигма русской фразеологии: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. Волгоград, 2000. 42 с
4. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). М.: ИКАР, 2009. 448 с.
5. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. Изд. 5-е, испр. и доп. М.: Книжн.дом «Либроком», 2010. 272 с
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978.